

**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA “KONSEPT”  
ATAMASINING TADQIQI**

*Axmadaliyeva Gulmira Marufjon qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili o‘qitish  
kafedrası metodikasi o‘qituvchisi,  
E-mail: [gulmiraaxmadaliyeva594@gmail.com](mailto:gulmiraaxmadaliyeva594@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada konsept tushunchasining o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi, kognitiv tilshunoslikning muhim qismi sifatida shakllanishi keng yoritib berilgan. Bu sohada ish olib borgan olimlar tadqiqotlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** konsept, freym, lisoniy paradigim, lisoniy ma’no, mantiqiy struktura.*

O‘zbek tilshunosligida esa “konsept” atamasi 1990-yillardan boshlab fanda namoyon bo‘la boshlagan. Bugungi kungacha bu tushuncha haqida ko‘plab olimlar va tilshunoslar tomonidan izlanishlar olib borilganligiga qaramay, ushbu tushunchaga aniq bir ta’rif berilmagan. O‘zbek tilshunoslari safida ham bu tushunchaga o‘z ta’riflarini bergan olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Chunonchi, Sh.Safarov, N.Mahmudov, T.Mardiyev, M.Rahmatova, O‘.Yusupov, G‘.Hoshimov kabi olimlarning izlanishlari alohida ahamiyatga molik bo‘lib, bu sohaga doir izlanishlar ko‘lamini yanada oshirdi.

Konsept haqida tilshunos olim Sh.Safarov “har bir konseptning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi hamda ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi” degan fikrlarni aytib o‘tgan.

Yana bir o‘zbek tilshunos olimi T.Mardiyev esa o‘zining o‘ttizga yaqin mualliflik ishlarida aynan konsept tushunchasiga berilgan ta’riflar, xulosalar, nazariyalar haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Tilshunosning fikricha: “Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma’lum tushunchalarni maxsus qoliplarga

solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega". Demak, konseptlar insonning odatdagi turmush tarzida qo'llanuvchi lisoniy birliklarni ham o'zida jamlaydi va har bir xalq lingvomadaniyatida o'ziga xos shaklga ega.

Tilshunos olim O'.Q.Yusupov esa konsept haqidagi izlanishlari asosida quyidagi ta'rifni keltiradi: "Konsept tushunchasi tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar yig'indisi bo'lib, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar asosida uni baholash mumkin. Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir". Lekin tilshunos O.Anorqulovning fikriga ko'ra, aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichikroq. Bundan ko'rinib turibdiki, biror so'zni konseptual jihatdan tahlil qilishda, avvalo, uning lisoniy paradigmada paydo bo'lgan voqelanishiga tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, kognitiv jihatdan tadqiq etilganda uning yanada ko'proq mazmuni oshkor bo'laveradi. Demak, konsept tushunchasi so'zni shunchaki bildirayotgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalayotgan barcha tushunchalarini, inson onggi bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etib beradi.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik sohasini asosiy fragmentlari sifatida kognitiv qatlam (slot), freym, ssenariy, skriptlar, konseptualizatsiya kabilar nazarda tutiladi.

O'zbek tilshunosligida esa nazariy bilimlarda ham, amaliy izlanishlar orasida ham ramka (frame) lar haqidagi tadqiqotlar olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, A. Nurmonov, Sh. Safarov, M.Jo'rayeva kabi tilshunos olimlar ijodida bu boradagi qator ilmiy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin.

Tilshunos olim A.Nurmonovning ilmiy tadqiqotlarida tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblangan kognitiv tilshunoslik va shu sohaga doir lisoniy birliklarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, kognitiv

tilshunoslikning o'ziga xos jihatlari, o'zbek tilshunosligida shakllanish bosqichlari va rivojlanishga turtki bo'lgan omillar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Yana bir o'zbek tilshunosi Sh.Safarovning "Kognitiv lingvistika" risolasida esa Leonard Talmening freymning tuzilishi haqidagi ta'limoti ham keltirilgan. Unda aytilishicha, freymlarning mantiqiy strukturasi quyidagi oltita kognitiv bo'lakdan iborat:

1. Figure (manzara, figura)
2. Ground (makon)
3. Path (yo'nalish)
4. Motion (harakat)
5. Manner (metod, uslub)
6. Cause (sabab, motiv).

O'zbek tilshunos olimalaridan biri M.Jo'rayevaning ilmiy tadqiqot ishlaridagi kognitiv tilshunoslikka doir fikrlari ham alohida e'tiborga molikdir. Tilshunosning ta'kidlashicha: "Kognitiv tilshunoslik bilishga asoslanadi. U tilning kognitiv jihati bilan qiziqadi. Ma'lumki, bilish olamni bilishda inson ongida bilimning paydo bo'lishi va boyib borishi jarayoni bo'lib, bilimning o'zgarishi bevosita yoki bilvosita til bilan bog'liqdir. U inson bilishi bilan hamohangdir". () Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi nafaqat tilshunoslik tarixiga, balki kognitiv tadqiqotlarning rivojlanishiga, kognitiv fan deb ataladigan fanning rivojlanishiga ham bog'liqdir. Insonning dunyoni o'rganishi, bilishi, aks ettirishi va idrok etishi uchun maqsadli faoliyat natijasi bo'lgan tafakkurning rolini alohida ta'kidlashimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Safarov Sh / Kognitiv tilshunoslik // Jizzax: Sangzor, 2006, 17-b
2. Mardiyev T. / "Baxt" konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida) // "Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim" (Ilmiy axborotnoma jurnali). – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2016, №10.B.36-44;
3. Jurayeva M.M / Linguocognitive, national and cultural features of the modality category in French and Uzbek fairy tales // Tashkent-2016, 5, p.38

4. Yusupov O'.Q / Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011. – B. 49.
5. Anorqulova O / Konsept tushunchasi va uning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqiga doir mulohazalar // Вестник магистратуры. 2022. № 4-2 (127), 52-55 b
6. Abdulhamid Nurmonov / Selected works on theoretical and practical problems of linguistics. Selected works // - T., 2012, [1, p-3].
7. Safarov Sh. / Kognitiv tilshunoslik // Jizzax: "Sangzor", 2006, 45-b
8. Jurayeva M.M / Linguocognitive, national and cultural features of the modality category in French and Uzbek fairy tales // Tashkent-2016, 5, p.38